

ALISHER NAVOIYNING LISON UT–TAYR ASARIDA KOMILLIK CHO‘QQISI

Abduxakimova Umidaxon Xomitjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Payariq xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo’nalishi

3-bosqich 2201-guruh talabasi

abduhakimovaumidaxon@gmail.com

+998 99 468 20 24

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” asari tahlil qilinib, uning mavzusi, badiiy xususiyatlari va tasavvufiy mazmuni yoritiladi. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari bilan bog‘liqlik jihatlari ko‘rib chiqilib, ruhiy kamolot sari intilish g‘oyalari keng targ‘ib qilingan. Shuningdek, ushbu asarning Navoiy tarjimai holiga bog‘liqligi va hayotiga ta’siri haqida ham so‘z yuritilgan. Navoiyning o‘ziga xos uslubi va asarning o‘zbek adabiyoti hamda tasavvuf falsafasi rivojida o‘rni tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *nodir asar, majoziy obraz.*

Annotation. *This article analyzes Alisher Navoi’s masterpiece “Lison-ut Tair” and highlights its theme, artistic features and mystical content. Aspects related to Farididdin Attar’s work “Mantiq ut-tayr” were considered, and ideas of striving for spiritual perfection were widely promoted. It is also mentioned about the connection of this work to Navoi’s biography and its influence on his life. Navoi’s unique style and the role of work in the development of Uzbek literature and sufism philosophy have been researched.*

Keywords: *masterpiece, figurative image.*

Alisher Navoiy asarlari matnini mufasssal o‘rganish usullari ancha yillardan buyon o‘quvchilarni qiziqtirib kelmoqda. Shu paytgacha Navoiy asarlari matnini o‘rganishda o‘ziga xos matniy tadqiq qilish usullaridan keng foydalanib kelingan. Qancha asrlar otsa hamki, Navoiy asarlari o‘z sayqalini yo‘qotmagan, bu asarlar bundan keyin ham o‘zini yangi – yangi jihatlarini namoyon qilishda davom

etadi, Lison ut-tayr ya'ni Qush tili asari ham Navoiyning eng go'zal, jozibada har qanday kitobxonni o'ziga maftun qila oladigan, ko'plab mushohada qilishga undaydigan nodir asardir. Mehribon va rahmli Tangrining nomi bilan deb boshlangan bu asar o'zining muallifini naqadar taqvoda yuksak, odamiylik degan oliyjanoblik tuyg'ularida tengsiz, komillik yo'lidagi mukammal inson ekanligini xabar beradi, Mashhur adib Gyote shunday yozgan edi "Tabiat hazilni bilmaydi. U doimo rostgo'y, har doim jiddiy, har doim haqdir. Xatolar va yanglishishlar esa insonlarga taalluqlidir". Zero, ulug' shoir ijodiyoti ham tabiatning ichki ruhiy olamiga naqadar uyg'un bir she'riyatdir. Uning she'ruyati takrorlanmas bir manba hisoblanib o'zining alohida bir jozibali tili bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Bu shoh asar o'zbek mumtoz adabiyotining muhim yodgorliklaridan biri bo'lib, 1498-1499-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning Mantiq ut -tayr asari ta'sirida yozilgan. Navoiy asarning mazmuni va bosh g'oya xususida Farididdin Attorga izdoshlik qilgan. "Lison ut-tayr" - chuqur falsafiy doston bo'lib, shoir unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvuriy g'oyalarni ifodalagan. Navoiy asar mazmunida insonni ulug'laydi, uning kamolotga erishish yo'lini yuksak she'riy mahorat, badiiy chizgilar bilan bayon etadi. Asarning barcha g'oyasi odamning tarbiyasini ko'rsatishga qaratilgan.

Bu nodir asar 3598 baytdan iborat bo'lib, aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun-foilotun-foilon) vaznida yozilgan. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan kichik hajmli, lekin mazmuni chuqur bo'lgan hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda Navoiy buyuk hikoyanavis sifatida ko'zga tashlanadi.

Asarda tasvirlanishicha, bir kuni guliston, bo'ston, o'rmon, dengiz va biyobon qushlari majlis quradilar. Bu majlisda qushlar o'rin topolmay, parokanda bo'lishadi, shunda Hudhud ularga bir odil yo'l boshchi kerak ekanligi, uning nomi Semurg' ekanligi haqida xabar qiladi. Shundan so'ng hamma qushlar birlashib Semurg' huzuriga yo'l olishadi. Ular yo'lda Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Farqu Fano vodiylarini bosib o'tishadi. Bu vodiylarni bosib o'tish mobaynida qushlar talay qiyinchilik va mushkulliklarga duch kelishadi. Bu safar davomida har xil qushlar har turli vaziyatlarda safarni tark etishadi va halok bo'lishadi. Safar yakunida ular anglab yetishadiki, Farqu Fano vodiysiga yetib kelgan 30 nafar qush o'zlarining Semurg' qushi ekanligini anglab yetishadi. Ular fano yo'lini bosib o'tishadi va alal

oqibat boqiylikka erishadilar. Har bir vodiy bayonidan soʻng ibratli hikoyatlar keltirilgan boʻlib, ularning tarbiyaviy mazmuni ancha chuqur maʼno kasb etadi. Asarda keltirilgan hikoyatlar har biri chuqur tarbiyaviy masalada yozilgan boʻlib, ularni oʻqigan kitobxon oʻylanishga majbur boʻladi, bu oddiy kamchiliklarni katta oqibatlarga olib kelishini tushunib yeta boshlaydi. Bir hikoyatda devona bir inson xazina topish ishqida umrini sarflaydi, vanihoyat juda katta Qorun xazinasiga teng boʻlgan boylikni topib, esidan ayrilib, hushidan ketadi. Uni shu tarzda uchratgan ablah bir kishi devonani oʻldirib boylikni olib ketadi, bechora aqlsiz devona xazina ilinjida haqiqiy xazinasini boʻlgan hayotidan ayriladi. Holbuki, uning yashashdan maqsadi xazinani topish, uni qoʻlga kiritmoq edi. Aslida esa u boru yoʻq sarmoyasidan – hayotidan judo boʻldi. Shoir aytmoqchiki, inson umrini behuda narsalar bilan sarflamasin, umr bizga berilgan ilohiy neʼmat. Yaxshi amallar qilish uchun imkoniyatdir. Umrni besamar oʻtkazish zalolatga olib borishi aniqdir.

Yana bir hikoyatda yomon odat yolgʻonchilik, insonlarni aldash koʻzboʻyamachilik haqida soʻz boradi, gavhar ilmidan bexabar soxta zargar oʻzining yolgʻoni orqasidan jallod qoʻliga tushadi.

Bir shaharga kelib dardi bedavo

“Qoʻli gul zargarman” deya qiladi davo

Gar munchoqni durdan ajrata olmas

Daʼvo qilishdan u sira tolmas.

Bir boyga soxta durlarni sotdi,

Gunohlar chohiga yana ham botdi.

Bor pulin pulladi tezda koʻr basir,

Boyga ham tez ayon boʻldi sir.

Boy kishi oʻrtanar bagʻrin nimtalab,

Qallobdan pullarin qiladi talab.

Qallob qarzin uza olmas begumon,

Uning boshin jallod olar begumon.

Asardagi eng uzun hikoya Shayx Sanʼon haqidagi hikoyatdir. Shayx Sanʼon ibn Saqqo XI- XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs boʻlib, uning otashin sevgisi haqidagi qissa Sharq mamlakatlarida mashhur. Badiiy adabuyotda bu qissani birinchi boʻlib Farididdin Attor 1221-yilda [“Mantiq ut-tayr”](#) asarida nazmda bergan dargohga yetishganlardan boʻlib, koʻngli gʻayb sirlaridan ogoh edi. U Kaʼbada avliyo kishilar

va qavmni yetaklovchilar orasida xuddi Payg`ambar o`z sahobalari bilan turgandek turardi. Shayxning taqvosi shu qadar yuksak ediki, uning murshidlari har jihatdan shayxni taqlid qilishar uning ilmi juda kuchli edi,

Qoshida bosh egar barcha ogohlar,
Mudom xizmatida hattoki shohlar
Chorasiz kimsani duo qilsa gar,
Hatto hurlar “Omin” derlar barobar
Parvardigor zikri bilan payvasta,
Ertayu kech fikri bilan payvasta.

Shunday ulug` pir taqdir taqozosi bilan Allohning sinoviga duchor bo`ladi, duchor bo`lganda ham qattiq, dinida yanglishish bilan, sinovga uchraydi. Bu Shayx San`onga hayotining ma`nosi, yashashining mazmuni edi. Shayx San`on Tarso qizining ishqida ko`p balolarga yo`liqadi, ne-ne jabru-jafo ko`rmadi, natijada buyuk shayh inson sevgisiga berilib, asl maqsadi haqiqiy ishq sevgisidan mosuvo bo`ladi. Shayx San`on xor bo`ladi. Uni bu yo`ldan qaytarmoq uchun juda ko`pchilik, do`st-u yoronlari, shogirdlari, murshidlari juda ko`p harakat qilishadi, lekin bu insonlarning urinishlari, pand-u nasihatlari besamar ketadi. Oradan ancha vaqt o`tib ketadi. Voqea shu qadar xunuk tus olib turgan bir davrda Shayxning sodiq shogirdi Allohga qattiq iltijo qiladiki, butun olamlar podshohi bo`lgan zotning hidoyati bilan Shayx o`ziga keladi. Sodiqlik shogirdi suyukli ustozining osoyish holiga qaytgani haqida ibodatdan so`ng o`z tushida suyukli paygambarimizning belgi berishi bilan xabar topadi. Hikoyaning asl muddaosi shundaki, Alloh hidoyatini o`rnini har qanday pandu-nasihat, maslahat yoki to`g`ri yo`lga soluvchi inson amallari bosolmaydi, hidoyat oliy zotga munosib. Inson hayoti davomida beriladigan sinovlarda juda xushyor yashashi zarur, to`g`ri yo`ldan adashmasligi, niyati soflikda umrguzaronlik qilishi kerak.

Yana Alisher Navoiyning „Lison ut – tayr“ asarida shunday misralarni o`qishimiz mumkin

Hudhud aytar; „So`zing rost bo`lsa agar“
Katta naf ko`rarsan bundan muqarrar.
Ochiq bo`lsa g`arib bandaning qo`li,
Elda izzat topib ochilar yo`li.
Himmat gavhar bo`lsa odam bir sadaf

Sadaf gavhar bilan topar shon – sharaf
Mansabga qiziqmas himmatli kishi,
Molu-dunyo bilan bo`lmaydi ishi.
Qo`lida bo`lmasa hamki davlati,
Himmat bilan uning yuksak savlati
Himmatli odam hech xor bo`lmaydi,xor,
Unga bu dunyo tor bo`lmaydi,tor.
Nainki mol-mulkin qimmati bilan,
Odam obro` topar himmati bilan.
Qaysi boy kimsaning himmati bo`lmas,
Donolar nazdida izzati bo`lmas.

Navoiy asarlarida ilgari surilgan g`oyalardan shuni anglash mumkinki,shoir o`z hayotini halollikda, poklikda,insoniylik darajasini o`z hayotiga tatbiq qilgan holda yashab o`tgan.Bu tarbiyaviy mazmundagi so`zlar kitobxonni mardlikka,jasurlikka, himmati yuksak inson bo`lib yashashga,halollikka chaqiradi

Yana Lison ut tayr da shunday hikoyatga ko`zimiz tushadi,ochko`z odam o`zining be`mani mol-dunyo to`plashi natijasida halok bo`ladi, uning halok bo`lishiga o`zining to`plagan dunyosi sabab bo`ladi.

Ochko`zlik boshiga yetar xasisning
Bor - budi qo`lidan ketar xasisning.
Molu dunyo qilmas hech kimga vafo,
Sen ham o`z joningga qilmagin jafo.
Boylik ham bir ofat,ogoh bo`l,ogoh,
Sening ham boshingga yetmasin nogoh.

Navoiy bu baytlari bilan ochkozlik ,faqat o`z foydasini o`ylab ish qilish yomon illat ekanini targ`ib etgan.Inson faqatgina o`z mafaatini ko`zlab emas,balki el-u yurt g`amini o`ylab yashashi lozimdir.Kimki faqat o`z g`amida jon kuydirsa, oqibatda xor bo`lishini,mol-dunyoga asir bo`lib yashash yaxshi emasligini kitobxonga ta`kidlab ketgan.

Xullas, kitobxon Alisher Navoiyning [“Lison ut-tayr”](#) asaridan ko`plab ma`naviy ma`rifiy o`gitlar olishi mumkin.Inson yaralishi o`zi yaxshi amallar uchun ekanligini anglab yetadi.chunki kimki yomon odatlarga odatlansa,qachondir buning oqibati xorlik,pushaymonlikdir.Buyuk adib bu kabi so`zlarni asarlaridagina

ko`rsatmagan, balki o`zining shaxsiy hayotida ham namoyon eta olgan. Umri davomida ko`plab ezgu ishlarni amalga oshirgan. Yo`qsillarga yordam qo`lini cho`zgan, hayotda qaysidir jihatdan adashganlarni to`g`ri yo`lga solishda jonkuyarlik qilgan, ta`lim – tarbiyada ommaga o`rnak bo`la olgan, ko`plab masjidlar-u madrasalar qurdirgan, kanallar qazdirgan. Bu masjidlarning ko`plari hozirda ham faoliyat ko`rsatmoqda, bunga misol qilib [“Ixlosiya“](#) [masjidini](#) olishimiz mumkin. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy o`zining boy ijodiy merosi, olib borgan ezgu amallari bilan xalqlarning qalbida barhayotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy, Alisher. Lison ut-Tayr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
2. Sirojiddinov, Shavkat. Alisher Navoiy tafakkuri va tasavvufi qarashlari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Karimov, Ibrohim. Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2001
4. Ergashov, Jo‘ra. Tasavvuf va adabiyot: Alisher Navoiy ijodida. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
5. Bertels, Yevgeniy. Navoiy – hayot va ijod yo‘li. – Toshkent: Fan, 1970.